

**FARZAND TARBIYASIDA TAFAKKUR QUDRATINING
AHAMIYATI**

Djanabaeva Aziza Alisherovna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xo‘jayli tumani

5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

aziza101192@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi insonlar uchun bolalarni hayotiy tajribalarga o‘rgatish uchun kerak bo‘ladigan amaliy maslahatlarni o‘z ichiga oladi. Unda fikr va so‘z qudrati haqida yetarlicha ma’lumot berilib, hayotiy misollar turli tajribalar keltiriladi.

Demak, so‘z va fikr yordamida biz nafaqat o‘zimizni, balki farzandlarimizni ham har sohada muvaffaqiyatga, salomatlikka hamda chiroyli tarbiyaga erishtira olamiz.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, qat’iyat, sabotlilik, so‘z qudrati, aql, taqlid, impuls, oqil, ijobiy ishonch.

Fikrlar bola dunyosida eng qudratli kuch hisoblanadi. Ular bola o‘sgani sari kundan- kun uning hayotidagi hamma jabhalarga ta’sir etib boradi. Bolaning ruhiy tarbiyasi, u tanlagan yo‘l, uning shaxsiyatiga oid chizgilar, ulg‘ayganda kim bo‘lishi – hammasi uning fikrlashiga borib taqaladi. Yaqin-yaqinlargacha tafakkur qudrati to‘g‘risida fanga hech nima ma’lum emasdi. Baxtimizga hozir unday emas. XXI asr boshida tafakkur qudrati millionlab odamlarning amaliyotiga aylandi. Zamonaviy OAV (ommaviy axborot vosita)larida ommabop jurnallar, hujjatli telefilm yoki ilmiy-ommabop nashr haqida gap boryaptimi- demak, ongni shakllantirish texnikasiga katta e’tibor berilmoqda, deb hisoblash mumkin. Arnol’d Shvartsenegger va Jim Kerri kabi kinoyulduzlar o‘zlarining tafakkur kuchi bilan katta natijalarga erishganliklarini chiroyli qilib bayon etadilar. Hozir hamma sohada natijani yaxshilash uchun doimiy fikr quvvatini oshirish muhim omil ekanini



ko'pchilik e'tirof etmoqda. Ammo tafakkur qudratiga shuncha diqqat ajratilganiga qaramasdan jamiyatning eng asosiy qismi hisoblangan ota-onalar bu texnikaga unchalik e'tibor berishmayapti. Tafakkur qudrati faqat kattalarga xos, yoshlar bu usulni o'zlashtira olmaydi, degan noto'g'ri fikrlash mavjud. Bolalar nafaqat tafakkur qudratiga tez moslasha oladilar, balki bundan katta naf oladilar ham.

Tafakkur kuchini o'rgatish bo'yicha maslahatlar: Suhbat yoki mashg'ulotlarni iloji boricha yengil va quvnoq o'yinga o'xshab tashkil qilishga harakat qiling. Usullarni davomiy takrorlab turish -muvaffaqiyatlarga erishish kaliti. Ammo ba'zi bolalar bu mashg'ulotni o'yin sifatida emas, ish sifatida qabul qilishsa, sizning urinishlaringiz qattiq qarshilik ko'rsatishi mumkin. Dars uchun qulay vaqt tanlang va mashg'ulotni dam olishga aylantiring.

O'z nutqingizda to'g'ri so'zlash odatiga erishing. Esingizda bo'lsin "Bolajonim to'g'ri yo'ldan sekin yur!" deyishingiz uni shoshmasdan yurib borishga undaydi, ammo "Yo'lda yugurmagin!" deyish, aksincha, yugurish uchun turtki bo'ladi. Chunki yugurish so'zi uning miyasida qolgan oxirgi so'zdir.

Bolaga hamma narsa qilishga imkoniyati borligini uqtiring. Har bir keyingi kelgan avlod o'zidan oldingi ajdodlari yurgan yo'lni bosib o'tadi, bu yangi dori yoki eng shirin sabzi navini yaratish mavzusida bo'lsa ham, farqi yo'q. Bolalarning imkoniyatlari bu dunyoda cheksiz.

Tafakkur qudrati usullarini avval o'zingiz o'zlashtiring. Bolalarni o'qitishning eng foyda beradigan yo'li -o'zingiz unga namuna, o'rnak bo'lishingizdir.

Quyidagi texnikadan foydalanib siz o'zingizni farzandingizga namuna bo'la olayotganingizni yoki aksinchaligini aniqlab olishingiz mumkin:

1. O'zingizga savol berib ko'ring: sizning qaysidir odatlaringiz va ishonchingiz hozirgidan ko'ra yaxshiroq ota-ona bo'lib yetishishingizga xalaqit bermayaptimi?

2. Farzandingizda o'zingiz ko'rishni xohlagan sifatlar ro'yhatini tuzing va har bir bo'lim qarshisiga siz bu jihatdan bolangizga o'rnak bo'la olasizmi yoki yo'q, degan ma'noda belgi qo'yib qo'ying. Hech qanaqa o'xshashlik yo'qmi? Esda tuting, bolangiz har doim sizdan o'rnak olishga tayyor.



Nima uchun ularga eng yaxshi namuna bo'lmasingiz kerak ekan? Bolangizga o'z baxtingizni qanday qidirayotganligingizni va hayotingiz mazmunini tasvirlab bering. Ovaqatlanish vaqtida ular bilan o'zingiz erishgan muvaffaqiyatlar haqida bahslashing, gap sizning ishingiz to'g'risida boryaptimi, sevgan mashg'ulotingiz haqidami yoki do'stlar bilan munosabat to'g'risidami, buning farqi yo'q. Bolalar faqatgina bizning o'z hayotimizdan mamnun ekanimizni va baxtiyorligimizni ko'rishadi, xalos. Ularga bizning ishimiz qiziqarli emas, jamiyatdagi o'rnimizning ham ahamiyati yo'q, oladigan maoshimiz ham muhim emas, balki o'zimizni baxtiyor tutishimiz, muvaffaqiyat va qoniqishlarimizni namoyish etishimiz muhimroq bo'ladi.

Keltirilgan usullar uzoq vaqt davomida sinovdan o'tgan, o'zining foydali jihatlarini ko'rsatishga ulgurgan, ko'p minglab bolalarda tajriba qilib ko'rilgan va, albatta, u sizning farzandingizga ham yordam beradi!

Har bir yangi avlod aqliy va ruhiy jihatdan o'zidan oldin o'tganlardan ko'ra yuksakroq ishonch hamda inkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Biz farzandimizning kelajagini o'zimizning bugungi harakatimiz bilan ekamiz. Biz qilayotgan har bir ish, agar aqlli ota-onalar sifatida harakat qilsak, dunyoni yaxshi tomonga o'zgartiradi. Bizning amalimiz faqat o'zimizning farzandlarimiz taqdiriga ta'sir etib qolmaydi. Balki u farzandlarimiz yo'lida duch keladigan har bir odamga ta'sir qiladi. Bu harakatlar ularning ham farzandlariga, nabiralariga foydasi tegadi. Keling, bizga ishongan avlodni birgalikda tarbiyalaylik va o'qitish jarayonida bitta bolani o'zgartirish orqali dunyoni o'zgartirish mumkinligiga qo'rqmasdan ishonaylik!

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Jon Kexo, Nensi Fisher. Bolalar tafakkur qudrati – T.:G'afur G'ulom, 2021.- bet 3-29.
2. Ahmedova Z. Farzand tarbiyasi: murakkab holatlarda psixolog maslahatlari – T.: “DAVR PRESS”, 2019. – bet 7.
3. Do'stmuhamedova Sh.A, Nishonova Z.T, Jalilova S.X, Karimova Sh.K, Alimbaeva Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – T.: 2013. – bet 210.